

ABDURAUF FITRATNING «RAHBARI NAJOT» RISOLASIDAGI BAXTSIZ ODAMLARNING IKKI TOIFASIGA OID QARASHLARI

Mohizarbegim ERGASHEVA

TDSHU, arab filologiyasi yo‘nalishi

2-bosqich (kunduzgi) arab guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Fitratning „Rahbari najot“ nomli risolasi va undagi baxtsiz odamlarning ikki toifasi haqidagi qarashlar tahlil qilinadi. Fitratning bu toifalarga bergan bahosi, ularning jamiyatdagi o‘rni va salbiy ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, asarda ilgari surilgan g‘oyalar orqali muallifning ma’rifatparvarlik ruhidagi da’vati, xalqni ilm va taraqqiyotga yetaklash yo‘lidagi urinishlari yoritiladi.

Abstract: This article analyzes Fitrat's treatise «The Leader of Salvation» and his views on two categories of unfortunate people. Fitrat's assessment of these categories, their role in society, and their negative impact are revealed. The ideas put forward in the work also shed light on the author's call for enlightenment and his attempts to lead the people to knowledge and development.

Kalit so‘zlar: Fitrat, najot yo‘li, jadidchilik, Turkiston, ilm, ma’rifat, dunyo va oxirat.

Key words: Fitrat, path to salvation, jadidism, Turkestan, science, enlightenment, this world and the hereafter.

XX asr boshlarida Movarounnahrda ma’rifatparvarlik g‘oyalari kuchayib, xalqni jaholat, nodonlik va zulmatdan qutqarishga qaratilgan harakatlar avj oldi. Bu davrda jadidchilik deb atalgan islohotparvarlik oqimi shakllandi va u xalqni ilmga, taraqqiyotga chorladi. Ushbu harakatning yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitrat o‘zining “Rahbari Najot” (“Najot yo‘li”) nomli risolasida xalqning

baxtsizligi sabablarini chuqur tahlil qilib, uni ikki asosiy toifaga ajratadi. Asarda Fitrat faqat muammolarni ko'rsatibgina qolmay, balki ularni bartaraf etish yo'llarini ham taklif qiladi. Uning bu qarashlari nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun yoshlariga ham ibrat va yo'l-yo'riq bo'la oladi.

Abdurauf Fitrat (1886–1938) — o'zbek adabiyoti va ma'rifatparvarlik harakatining yirik namoyandasi, yozuvchi, olim, pedagog va siyosatchi. U jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida xalqni o'zligini anglash, ilm-fan o'rganish, zamonaviy tafakkur bilan yashashga undagan va ijtimoiy islohotlar zarurligini targ'ib qilgan. Fitrat Xiva shahrida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni mahalliy maktab va madrasalarda olgan. Keyinchalik Istanbulga borib, u yerda yuqori ma'lumot olgan va turk madaniyati hamda adabiyotidan katta ta'sirlangan. 1920-yillarda O'zbekistonga qaytib, milliy uyg'onish, mustaqillik va ijtimoiy adolat g'oyalarini keng targ'ib etgan. U o'zining publitsistik, badiiy va ilmiy asarlari orqali o'zbek xalqini yangicha tafakkur va ma'naviy yuksalishga chorlagan. Fitratning eng mashhur asarlaridan — "Rahbari Najot", "Oila", "Hind Sayyohi" va "Qiyomat" kabi asarlarida milliy g'urur, ozodlik ruhi, ma'naviyat va madaniyat masalalari chuqur ifodalangan. U zullisonayn adib sifatida bir nechta tillarni mukammal bilgan, o'zbek adabiy tilining rivojiga katta hissa qo'shgan. 1926-yilda Fitratga O'zbekistonda birinchi professor unvoni berilgan. Afsuski, 1938-yilda u qatag'on qurban ni bo'lgan va nohaq ravishda o'lim jazosiga hukm qilingan. Uning merosi keyinchalik tiklanib, bugungi kunda milliy o'zlikni anglash yo'lida muhim manba sifatida qadrlanmoqda.

Asarning nega bunday nomlanganligi haqida Fitrat asar muqaddimasida shunday deydi: „...Ma'lumkim, bizning ota-bobolarimiz har bobda, ayniqsa, ilm va ma'rifatda olam ahli uchun ibrat va namuna bo'lganlar. Borib-borib zamon o'zgardi, sa'y-u harakatlar, ilmga bo'lgan intilishlar susayib, talqinchilikka aylandi, „ijod qilmoq“ (degan tushuncha) zararli va aloqasiz manzumalar chordevorida qolib ketdi.

Mamlakatimizda bunday tushkunlik davr uzoq muddat davom etdi... Ushbu axloqiya majmuasini tartib berib, „Rahbari najot“ („Najot yo‘li“) deb nomladim.^{“¹}

„Rahbari najot“ asari orqali Abdurauf Fitrat jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy kamchiliklarni tanqid qiladi hamda xalqni o‘zini anglashga, ilm olishga va ma’rifatli bo‘lishga undaydi. Asarda, ayniqsa, Turkiston o‘lkasida mustaqil, o‘zini hurmat qiladigan va taraqqiyot sari intiluvchi jamiyat barpo etish zarurati alohida ta’kidlanadi. Fitrat bu asar orqali xalqni uyg‘onishga, jaholatdan voz kechishga va zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallashga chorlaydi.

Fitratning fikriga ko’ra, mamlakatimizda baxtsiz odamlarning ikki toifasi bor. Ulardan birinchi guruh faqat yeyish, ichish va yotishni hayot mazmuni deb biladi. Ular bir luqma non va yotoq uchun insoniy burchlarini unutadi, foydali ish haqida o‘ylamaydi. Tunlari qorinning, kunduzlari yotoqning g‘ami bilan band bo‘ladilar. Ular hayotning chuqur ma’nosidan bexabar, faqat bu dunyo osoyishtaligini o‘ylaydigan pastkash toifadir. Fitrat ularni jamiyatga zarar keltiruvchi, insoniylik martabasidan hayvonlik darajasiga tushgan kishilar deb baholaydi. Alloh esa ularni oxirat saodatidan mahrum etgan. Ba’zi odamlar Allohdan faqat bu dunyoni so‘raydilar. Ularning oxiratda hech qanday ulushi yo‘q. Chunki Qur’oni karimda shunday oyat bor: «*Ibodatlariningizni tugatganingizda, Allohn ni otalariningizni eslagandek, balki undan ham kuchliroq eslangu. Odamlardan ba’zilari: „Robbimiz, bizga bu dunyoda bergen“, deydi va unga oxiratda nasiba yo‘qdir.*»²

Ikkinchi guruh shunday bir jamoaki, ular hayotning mazmuni faqat oxirat saodati deb biladilar. Bu dunyo saodatiga erishish uchun esa hech qanday harakat qilmaydilar, balki uni kofirlarga xos deb hisoblaydilar. Boshqacha qilib aytganda, bu dunyoni kofirlar jannati, musulmonlarning esa do‘zaxi deb tushunadilar. Bu toifa ham insoniylik burchlarini anglamagan, bashariyat yaratilishining asl maqsadini idrok

¹ Abdurauf Fitrat. Najot yo‘li. Risola. (Ziyo.uz sayti)

² Baqara surasi. 200-oyat.

etmagan kishilardir. Ularning bu fikri ilohiy hukmlarga zid keladi. Aslida esa, ikki dunyo saodatini birdek talab qilgan insongina komil musulmon bo‘la oladi.

Alloh taolo ham ikki dunyo saodatini talab qilganlarni madh etib, «Baqara» surasida shunday degan: «*Va ulardan ba’zilari: «Rabbimiz, bizga dunyoda ham yaxshilik, oxiratda ham yaxshilik bergin va bizni olov azobidan saqlagin», – deydilar. Ana o’shalarga qilgan kasblaridan nasiba bor. Va Allah tez hisob qiluvchidir.*»³

„Dunyoni mo‘minlar do‘zaxi, kofirlar jannati deb qanday teran aql bilan aytib, bu xom xayolni ilohiy farmon deb bilamiz? Hazrati Faxri Koinot alayhissalom muborak umrlarini sa’y-harakat bilan o‘tkazganlar. Allohning hukmlarini ulardan ham yaxshiroq bilamizmi? U zot cho‘ponlik qilganlar, tijorat bilan shug‘ullanganlar, muallimlik qilganlar, va’z aytganlar, imomlik qilganlar, ba’zan askar, ba’zan sartib⁴, ba’zan xatib, ba’zan tabib bo‘lganlar. Bular sa’y-harakat bo‘lmay nima edi? Agar ular harakatda bo‘lgan bo‘lsalar, nega biz tanballik va harakatsizlikni o‘zimizga do‘sit qilib oldik? Dunyoni oxirat uchun, oxiratni esa bu dunyo uchun tark etuvchilarning fikrlarining noto‘g‘ri ekanini ko‘rsatish uchun „Al-Jome‘ as-Sag‘ir“dagi quyidagi hadisi sharif kifoya qiladi: حَيْرُكُمْ مَنْ لَمْ يَتُرُكْ أَخْرَتُهُ لِدُنْيَا وَلَا دُنْيَا لِآخْرَتِهِ وَلَا يَحْمِلُهُ مَا يَحْمِلُ النَّاسُ»

«Sizlardan yaxshilaringiz – oxiratni dunyo uchun tark qilmagan, dunyoni esa oxirat uchun tark qilmagan, va og‘irligini boshqalarning zimmasiga tashlamaydigan kishilardir.»⁵ “, - deydi Fitrat.

„Endi bu ikkala jamoa: biri dunyoparastlar va birlari oxiratparastlarga da‘volarimizni ma’lum qilganimizdan so‘ng yana bir jamoani ham esdan chiqarishimiz odobdan bo‘lmaydi. Bu jamoa ham millatimiz o‘rtasida katta mavqega ega. Bizning qoloq va baxtsiz bo‘lishimizda ularning xizmatlari kattadir. Bu jamoa dunyo va oxirat saodatini talab qiladilar, lekin bu maqsadga erishish uchun harakat ham qilmaydilar

³ Baqara surasi. 201–202-oyatlar.

⁴ Sartib – tibbiyat hamshirasi, feldsher.

⁵ Jaloliddin Suyutiyy, Al-Jome‘ as-Sag‘ir, hadis 1234.

Ulardan shu haqida so'rasangiz, noz-karashma bilan „Allohi karim“ deb javob beradilar. Bu tanballik va harakatsizlikni ular „tavakkal“ deb ataydilar. Kambag‘allik va balolardan azob cheksalar, darrov biror masjid yoki falon bir avliyoning qabriga borib qancha kuchlari bo‘lsa, boshlarini yerga urib, duo qiladilar. Biz bunday duoning ijobat bo‘lmasligini yuqorida bayon qildik“, - deya baxtsiz odamlarning uchinchi turini ham keltirib o‘tadi. Abdurauf Fitrat risolasida ikki dunyo saodatiga erishish uchun „najot yo‘li“ deya dinni keltiradi va shunday deydi: „Din – axloqiy hukmlardan iborat bo‘lib, o‘z tobellarini ikki dunyo saodatuga yetaklaydi. Hayot g‘oyasi, yo‘l shu ikki dunyo saodatidir. Din esa unga eltuvchi najot yo‘lidir.

Fitrat bugungi kunda boshimizga kelgan falokat va balolarning yagona sababi insoniyatning hikmatli hukmlardan va Qur’ondan uzoqlashib ketgani deya baholaydi. Agar inson dunyo va oxirat talabida bo‘lsa, barcha g‘arazli va fasod ishlarni bir tarafga qo‘yib, samimiyl qalb bilan unga mute’ bo‘lib, Qur’on hukmlariga bo‘ysunib, sunnatga amal qilib, hayotimizni shunga munosib qilib tartiblasak, ikki dunyo saodatiga erishish mumkinligini ta’kidlaydi.

Bandaning badbaxtligimiz sabablariga bag‘ishlab aytgan shuncha ma’ruzasidan keyin muhtaram o‘quvchilardan biron fikr chiqishiga shubha qilaman. Lekin bu xastaliklarimizga qarshi qanday chora ko‘rish kerak? Bu xarobot va jahl-u g‘aflat girdobidan xalod bo‘lib, taraqqiyot, saodat va tinchlikka erishmoq uchun nima qilmoq kerak? Bu xususda ham katta-katta ulamolarimizdan ba’zilari „ahli islom bu holatdan xalos topmaydi, zero bizning zamon – islom zaiflashgan oxir zamondir“ deb aytadilar. Ulardan gaplariga dalil keltirishlarini so‘rasak, darhol „Kulli yavmin badtar“ iborasini pesh qiladilar. Lekin biz ularga qulq solmay, masala yechimini Qur’oni karimdan izlaylik, - deya Fitrat risolasida yuzaga kelgan savollarga Qur’on va hadislardan dallilar keltirib, o‘z fikrlarini tasdiqlagan.

Risolaning bu qismini tugatar ekan Fitrat bir nechta xulosalar taqdim qiladi:

1. Alloh bizni barcha maxluqlar kabi boshqa jinslar manfaati uchun emas, balki ikki dunyo saodatiga yetishish uchun xalq qilgan.
2. Dunyo saodatini oxirat uchun, oxirat saodatini bu dunyo uchun tark etish noto‘g‘ridir, bizga ikki jahon saodati darkor.
3. Ikki jahon saodatini esa sa’y-harakat bilangina topish mumkin.
4. Sa’y-harakatsiz duodan foyda yo‘qdir.
5. Avliyolardan maqsad ravo bo‘lishini tilash foydasizligidan tashqari yana gunoh hamdir.

Asar nafaqat Fitrat yashagan davr uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarbdir, zarurdir. Komil inson bo‘lish, hayotni munosib va to‘g‘ri yashash uchun yo‘l ko‘rsatuvchi mayoqdir bu kitob. O‘zining millati, madaniyati, dinini unutib, o‘zga madaniyat vakillari tomon intilayotgan, yashashdan asl maqsadini o‘zligiga qo‘shib yo‘q qilganlar uchun „Rahbari najot“ni o‘qish ayni muddaodir.

Asarda dunyo va oxirat o‘rtasida muvozanatni saqlash, insonning har ikki hayotdagi baxtini sa’y-harakat bilan izlash zarurligi uqtiriladi. Dunyonи faqat kofirlarga, oxiratni esa faqat mo‘minlarga xos deb bilish xato ekanini muqaddas oyatlar va hadislarga tayangan holda isbotlaydi. Rasuli Akram (s.a.v.) ham har tomonlama faol bo‘lganliklari orqali musulmonlar uchun eng go‘zal ibrat bo‘lib qoladilar. Demak, harakat va mehnat qilmay turib, faqat duo va tilak bilan baxtga erishish mumkin emas. Ikkala dunyo saodatini istagan kishi harakatli, ongli va mas’uliyatli bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahbari najot. Abdurauf Fitrat. (Ziyo.uz sayti)
2. Wikipedia.uz sayti